

## О‘ЗBEK TILI TERMINOLOGIYASI RIVOJINING BA‘ZI MASALALARI

**Abduxafizova Moxinur Abdug'offor qizi**

IT va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti  
filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili  
yo'nalishi 1-bosqich 25-11-guruh talabasi.  
javohirabduhofizov2@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek tili terminologiyasi tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Xususan, terminlarning bir nechta shaklda qo'llanishi, chet tillardan kirib kelgan atamalarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar, yangi fan va sohalar uchun yetarli terminlarning mavjud emasligi hamda normativlashtirish va yagona terminologik lug'atlar tizimining yetishmasligi kabi masalalar yoritiladi. Shuningdek, ushbu muammolarning ilmiy muloqot aniqligi va terminologik tizim barqarorligiga salbiy ta'siri ham asoslanib, ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek terminologiyasi, terminlarning ko'p variantlilik, chet tillardan o'zlashgan terminlar, terminlarni moslashtirish, yangi soha terminlari, terminologik bo'shliqlar, terminologik lug'atlar.

### **Kirish**

Hozirgi globallashuv sharoitida fan va texnikaning jadal rivojlanishi o'zbek tilida yangi terminlarning tez sur'atlarda paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Biroq bu jarayon terminlarning izchil shakllanishi, yagona me'yor asosida qo'llanishi va normativlashtirilishi bilan hamisha ham uyg'un kechmayapti. Natijada ilmiy va amaliy muloqotda terminologik noaniqliklar, muqobil variantlarning ko'pligi hamda chet tillardan kirib kelgan atamalarning tartibsiz ishlatilishi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolada terminlarning bir nechta shaklda qo'llanishi, chet tillardan kirgan atamalarni moslashtirishdagi qiyinchiliklar, yangi sohalarda

terminlarning yetishmasligi va normativlashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari o'zbek terminologiyasini yanada takomillashtirish va uni zamonaviy fan talablari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **Asosiy qism. Tadqiqot uslublari.**

Mazkur tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, qiyosiy va tizimli yondashuv uslublaridan foydalanildi. O'zbek tilidagi terminologik manbalar, darsliklar, ilmiy maqolalar hamda mavjud terminologik lug'atlar tahlil qilinib, terminlarning shakllanishi, qo'llanishi va normativlashuv jarayonidagi muammolar aniqlab olindi. Shuningdek, chet tillardan kirib kelgan terminlarning o'zbek tiliga moslashtirilish holatlari kuzatilib, ularning semantik va struktur xususiyatlari qiyosiy jihatdan o'rganildi.

Termin so'zi lotincha terminus – “chegara, oxirgi nuqta” degan ma'noni bildiradi. Tilshunoslikda esa termin muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish yoki ijtimoiy sohada aniq bir tushunchani ifodalovchi maxsus so'z yoki so'z birikmasini bildiradi.<sup>1</sup> Terminlar bir qancha xususiyatlari – bir ma'noliligi, aniqligi, emotsional bo'yoqqa ega emasligi va ilmiy uslubga xosligi bilan umumxalq leksikasidan farqlanadi.<sup>2</sup> Masalan, fonema, fe'l, leksikologiya kabi so'zlar tilshunoslik terminlari, funksiya, kvadrat ildiz matematika terminlari, konstitutsiya, yurist esa huquq sohasiga oid terminlardir.<sup>3</sup> Terminologiya deganda esa muayyan sohadagi terminlar majmuyi hamda terminlarni o'rganadigan tilshunoslik bo'limi tushuniladi. Terminologiya fan va texnika tili taraqqiyotining muhim ko'rsatkichi bo'lib, u ilmiy tushunchalarning to'g'ri va yagona ifodalanishini ta'minlaydi.

O'zbek tili terminologiyasi qadimgi turkiy davrlarga borib taqaluvchi maxsus leksik birliklar asosida shakllana boshlagan. Dastlabki terminologik qatlam harbiy, ijtimoiy va diniy sohalarga oid atamalardan iborat bo'lib, keyinchalik arab va fors tillari ta'siri ostida ilm-fan, fiqh, falsafa hamda adabiyotga oid terminlar bilan boyigan. XX asr boshlarida jadidchilik harakati natijasida terminlarni xalq tiliga

<sup>1</sup> Xojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati.

<sup>2</sup> Dadaboyev X. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. - 5b.

<sup>3</sup> Nurmatova U., Eshbo'tayeva Sh. Terminologik tizim shakllanishi va rivojlanishi: nazariy metodologik asoslari / U. Nurmatova, Sh.-182 b.

yaqinlashtirishga qaratilgan urinishlar yuzaga kelgan va 1920-yillarda dastlabki terminologik lug'atlar tuzila boshlagan. Bu jarayon terminlarni tizimlashtirish va normativlashtirishga zamin yaratdi. Sovet davrida terminologiya ilmiy asosda rivojlantirildi. 1930-yillarda O'zbekistonda til va terminologiya masalalari bilan shug'ullanuvchi komitetlar faoliyat yurita boshladi, 1964 yilda esa Fanlar akademiyasi huzurida Terminologiya bo'limi tashkil etildi.<sup>4</sup> Bu davrda rus tili orqali kirib kelgan texnik va ilmiy terminlar o'zbek tiliga moslashtirildi. Mustaqillikdan keyin o'zbek terminologiyasi yangi bosqichga ko'tarildi. Davlat tili maqomining mustahkamlanishi natijasida terminlarni milliylashtirish, yangi iqtisodiy, huquqiy va axborot texnologiyalariga oid tushunchalar uchun o'zbekcha atamalar yaratish jarayoni faollashdi. Hozirgi kunda esa globallashuv jarayoni terminologiyaning jadal yangilanishiga olib kelmoqda. IT, media va innovatsion texnologiyalar sohalaridan yangi terminlar kirib kelmoqda hamda terminlarni yagona me'yor asosida tartibga solish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Ilmiy jamoatchilik orasida "internet", "kompyuter" kabi terminlarni asliy shaklda qo'llab turish yoki o'zbekchallashtirish (tarmoq, hisoblash mashinasi) bo'yicha fikrlar bir qadar turlicha.

Terminlarning ilg'or xorijiy tillardan olingan variantlari hamon davriy bahslarga sabab bo'lishi tabiiy. Masalan, "algoritim", "matritsa", "molekula", "ion" kabi terminlar xalqaro miqyosda ham bir xil shaklda fanga singib ketgan. Shu bilan birga, ayrim terminlarning mahalliy ekvivalentini topish yoki keng iste'molda ishlatiladigan ruscha yoki inglizcha shaklda qoldirish bo'yicha aniq me'yorlar shakllanmagan. Shu bois ilmiy hamjamiyat, lingvistlar, tarjimonlar, darsliklar mualliflar terminlar bo'yicha me'yoriy hujjatlar, yangi lug'atlar va onlayn platformalarni birgalikda takomillashtirishlari muhim.<sup>5</sup>

O'zbek tilida terminologiya tizimining shakllanishi va rivoji jarayonida ilmiy muloqotning aniqligi hamda barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator muammolar vujudga kelgan. Ushbu muammolar, avvalo, bir tushuncha uchun bir

<sup>4</sup> Terminologik lug'atlar tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.-13-17 b.

<sup>5</sup> Nurmatova U., Eshbo'tayeva Sh. Terminologik tizim shakllanishi va rivojlanishi: nazariy metodologik asoslari/ U. Nurmatova, Sh. Eshbo'tayeva. –Toshkent: "TsAJAR"/ in-academy. uz, 2025.

nechta termin variantlarining qo'llanishi, chet tillardan kirib kelgan atamalarni o'zbek tiliga moslashtirishdagi qiyinchiliklar, yangi fan va sohalar uchun yetarli terminlarning mavjud emasligi hamda terminlarni yagona me'yor asosida tartibga soluvchi normativ lug'atlar tizimining yetishmasligida namoyon bo'lmoqda. Mazkur holatlar o'zbek terminologiyasining izchil va barqaror tizim sifatida shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Bulardan terminlarning bir necha shaklda ishlatilishiga, avvalo, to'xtalib o'tsak. O'zbek terminologiyasining dolzarb muammolaridan biri bir tushunchaning turli atamalar orqali ifodalanishidir. Bu hodisa terminologik tizimning izchil va barqaror bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tilning asosiy talabi aniqlik va bir ma'nolilik bo'lsa-da, amaliyotda bu tamoyil to'liq amalga oshmayapti. Birinchidan, terminlarning ko'p variantliligi ko'pincha tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Terminlarning ko'p variantliligi axborot almashishda qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin. Masalan, bir tilda ishlatilayotgan terminning boshqa til yoki fan sohasidagi nomini bilmaslik muammo tug'diradi. Turli davrlarda bir xil tushuncha uchun arabcha, ruscha yoki inglizcha modellarga asoslangan atamalar muomalaga kirgan. Natijada ayrim terminlar qatlamlanib, ularning biri ilmiy adabiyotlarda, boshqasi esa so'zlashuv nutqida qo'llanadigan holatlar yuzaga kelgan. Masalan, "termin" va "atama" birliklari uzoq vaqt davomida sinonim sifatida aralash qo'llanib, ilmiy matnlarda me'yoriy noaniqlikni yuzaga keltirgan. Ikkinchidan, termin yaratish jarayonining markazlashtirilmaganligi bu muammoni yanada kuchaytiradi. Turli mualliflar, tarjimonlar va soha mutaxassislari bir tushunchani o'zlaricha nomlashga intiladi. Bunda ilmiy muvofiqlashtirish va tasdiqlash mexanizmlarining yetarli darajada ishlamasligi terminlar orasida ichki raqobatni paydo qiladi. Natijada ilmiy adabiyotlarda bir tushuncha bir necha nom ostida yuradi, bu esa terminologik tizimning parokandalashuviga olib keladi. Bundan tashqari, ko'p variantlilik ilmiy muloqot samaradorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Talabalar, yosh tadqiqotchilar va tarjimonlar uchun bunday noaniqlik tushunchaning mohiyatini to'g'ri anglashni qiyinlashtiradi. Terminlarning qat'iy me'yor asosida belgilanmagani fanlararo aloqalarda ham terminologik chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Terminlarning bir

nechta shaklda ishlatilishi bu faqat leksik muammo emas, balki o'zbek ilmiy tilining me'yorlashuvi va standartlashuvi bilan bevosita bog'liq masaladir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun terminlarni yagona normativ mezon asosida tanlash, ularni rasmiy lug'atlar orqali mustahkamlash va amaliyotga joriy etish zarur. Faqat shundagina terminologik tizimning aniqligi va barqarorligi ta'minlanadi.

Chet tillardan kirgan terminlarni moslashtirishdagi muammolar ham o'zbek tili terminologiyasi rivoji uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy fan va texnologiyalar taraqqiyoti, ayniqsa ingliz tilining global ilmiy tilga aylanishi o'zbek terminologiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada axborot texnologiyalari, iqtisod, marketing, tibbiyot kabi sohalarda ko'plab yangi tushunchalar chet tillar orqali kirib kelmoqda.<sup>6</sup> Biroq bu jarayon tabiiy rivojlanish bo'lishiga qaramay, terminlarni moslashtirish masalasida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunda yangi terminlarning o'zbekchaga tarjimasi ko'pincha izchil amalga oshirilmaydi. Ba'zi hollarda termin to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma sifatida qabul qilinadi, boshqa holatlarda esa u turli tarjima variantlari bilan ifodalanadi. Masalan, bitta tushuncha software so'zi asosida "dastur", "programma", "dasturiy ta'minot" kabi shakllarda qo'llanadi. Bunday ko'p variantlilik ilmiy matnlarda semantik aniqlikni pasaytiradi va terminologik tizimning yaxlitligiga putur yetkazadi. Bundan tashqari o'zlashma terminlarning fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashtirilishi yetarli darajada me'yorlashtirilmagan. Ayrim terminlar talaffuz va yozuv jihatidan asl shaklga juda yaqin holda qo'llansa, boshqalari esa qisman tarjima qilinadi yoki o'zbek tilining ichki qonuniyatlariga moslashtiriladi. Bu jarayonning tartibsizligi natijasida bir tushuncha uchun parallel variantlar shakllanadi va ularning qaysi biri me'yoriy ekanini aniqlash qiyinlashadi. Anglashiladiki, ingliz tilidan kirib kelgan terminlarning ko'pi tor soha doirasidan chiqib, umumxalq nutqiga ham singib bormoqda. Biroq ular ommalashgan sari semantik torlikni yo'qotib, ko'p ma'nolilikka moyil bo'lib qoladi. Bu esa terminning ilmiy aniqlik xususiyatiga zid bo'lib, uning terminlik maqomini

<sup>6</sup>Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2021.-87 b.

zaiflashtiradi. Chet tillardan kirayotgan terminlarni moslashtirish jarayoni o'zbek terminologiyasi uchun muhim, biroq murakkab bosqich hisoblanadi. Ushbu muammoni hal etish uchun terminlarni tarjima qilishda yagona mezonlarni belgilash, ularni fonetik-morfologik jihatdan moslashtirishning aniq qoidalarini ishlab chiqish hamda normativ lug'atlar orqali ularni rasmiylashtirish zarur. Faqat shunda o'zbek ilmiy tili zamonaviy fan va texnologiyalar bilan hamqadam rivojlanish imkoniga ega bo'ladi.

So'nggi o'n yilliklarda axborot texnologiyalari, marketing, ekologiya, media va innovatsion texnologiyalar kabi sohalar jadal rivojlanmoqda. Ushbu sohalar bilan bog'liq yangi tushunchalar deyarli har kuni paydo bo'layotgan bo'lsa-da, ularning o'zbek tilida ifodalanishi hamisha ham izchil va tizimli tarzda amalga oshirilmayapti. Natijada mazkur sohalarida terminologik bo'shliqlar yuzaga kelmoqda. Bunda yangi fan va kasbiy yo'nalishlar ko'pincha xorijiy manbalarga tayanadi. Shu sababli tushunchalar ham dastlab ingliz yoki boshqa chet tillarida shakllanadi. O'zbek terminologiyasida esa bunday atamalar uchun tayyor model yoki an'anaviy termin yasash mexanizmi yetarli darajada shakllanmagan. Natijada tarjima jarayoni kechikadi yoki umuman amalga oshirilmaydi va chet tilidagi termin to'g'ridan-to'g'ri o'zlashma sifatida qo'llanadi. Bundan tashqari, yangi sohalar terminlari semantik jihatdan murakkab bo'lgani uchun ularni o'zbek tilida aniq va qisqa ifodalash oson emas. Bunday terminlar ko'pincha so'z birikmalari orqali beriladi, biroq ular ommalashmay, faqat tor doiradagi mutaxassislar orasida ishlatiladi. Shu bois terminlar umumiy nutqqa singib ketmaydi va yagona me'yor sifatida mustahkamlanmay qoladi.

Terminologik bo'shliqlar fanlararo aloqalarda ham jiddiy muammolar tug'diradi. Bir sohada hali to'liq shakllanmagan terminologiya boshqa sohalarga ham noaniqlik olib kiradi. Bu esa ilmiy muloqotda, darsliklar va o'quv qo'llanmalarida tushunchalarni aniq ifodalashni murakkablashtiradi. Shu asnoda, yangi sohalarida yetarli terminlarning yo'qligi o'zbek terminologiyasi rivojida muhim to'siqlardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun yangi tushunchalar paydo bo'lishi bilanoq ularni o'zbek tilida ifodalash mexanizmlarini ishlab chiqish, termin yaratishda soha mutaxassislari va tilshunoslarning hamkorligini kuchaytirish hamda

yaratilgan terminlarni normativ lugʻatlar orqali mustahkamlash zarur. Faqat shundagina terminologik boʻshliqlar qisqarib, oʻzbek ilmiy tili zamonaviy fan bilan hamqadam rivojlanadi.

Oʻzbek terminologiyasining dolzarb muammolaridan yana biri – terminlarni normativlashtirish va ularni yagona meʼyor asosida tartibga soluvchi lugʻatlar tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Terminologiya sohasida yagona meʼyorlar mavjud boʻlmagani sababli bir tushuncha turli ilmiy manbalarda turlicha nomlanmoqda, bu esa terminlarning barqarorligini taʼminlashga toʻsqinlik qilmoqda. Normativlashtirish jarayonining sustligi, avvalo, fan tarmoqlari boʻyicha maxsus terminologik komissiyalar faoliyatining uzviy yoʻlga qoʻyilmaganligi bilan bogʻliq. Natijada har bir soha oʻz terminlarini mustaqil ravishda shakllantiradi, biroq bu terminlar umumtil miqyosida muvofiqlashtirilmaydi. Shu bois, darsliklar, ilmiy maqolalar va rasmiy hujjatlarda bir xil tushunchaning turli nomlari uchrab turadi. Yagona terminologik lugʻatlar tizimining yoʻqligi esa ushbu muammoni yanada chuqurlashtirmoqda. Ayrim sohalar boʻyicha tuzilgan lugʻatlar mavjud boʻlsa-da, ular koʻpincha tor doiradagi mutaxassislar uchun moʻljallangan boʻlib, keng jamoatchilik yoki taʼlim tizimi uchun yetarlicha moslashtirilmagan. Bundan tashqari, bu lugʻatlar muntazam yangilanmaydi, yangi fan-texnika yutuqlari bilan boyitib borilmaydi. Natijada terminlarning yagona meʼyoriy shakli barqarorlashmay, muqobil variantlarning soni ortib boradi.<sup>7</sup> Bu esa nafaqat ilmiy muloqotda, balki taʼlim jarayonida ham tushunmovchiliklarga sabab boʻladi, oʻquvchilarda terminlar borasida barqaror tasavvurning shakllanishiga toʻsqinlik qiladi. Demak, oʻzbek terminologiyasini rivojlantirishda normativlashtirish masalasini tizimli tarzda hal etish, sohalararo hamkorlik asosida yagona terminologik lugʻatlar yaratish va ularni muntazam ravishda yangilab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon terminologiyaning izchil, barqaror va ilmiy asoslangan tizim sifatida shakllanishini taʼminlaydi.

<sup>7</sup> Pirmatova D.U. Oʻzbek tilshunosligida terminologiya masalasining oʻrganilishi : ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari / D. U. Pirmatova. – Toshkent: in-academy.uz, 2025.-48-50 b.

### Ilmiy ishning natijasi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek terminologiyasida bir tushunchaning bir nechta nom bilan ifodalanishi ilmiy muloqotda noaniqliklarni keltirib chiqarmoqda. Terminlarning ko'p variantli bo'lishi tarixiy, ijtimoiy va tarjima jarayonidagi farqlar bilan bog'liq bo'lib, bu holat yagona me'yorning shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, ingliz va boshqa chet tillardan kirib kelgan terminlarning fonetik va semantik jihatdan moslashtirilishi yetarli darajada izchil emasligi aniqlandi. Yana bir muhim natija bu axborot texnologiyalari, marketing, ekologiya kabi yangi sohalar uchun o'zbekcha terminlar tizimi hali to'liq shakllanmaganidir. Bu sohalarda ko'plab tushunchalar chet tilidagi shaklda qo'llanib, terminologik bo'shliqlar yuzaga kelmoqda. Normativ lug'atlar tizimining yetishmasligi esa mavjud terminlarni yagona me'yor asosida mustahkamlash imkonini cheklab qo'yimoqda. Olib borilgan tadqiqot o'zbek terminologiyasining hozirgi holati tizimli yondashuvni talab etishini, terminlarni yaratish va me'yorlashtirish jarayonlarini markazlashtirish zarurligini ko'rsatdi.

### Xulosa

O'zbek tili terminologiyasi ko'p asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, bugungi kunda zamonaviy fan va texnika yutuqlarini ifodalashda muhim vositaga aylanib bormoqda. Biroq olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, terminlarning bir nechta shaklda qo'llanishi, chet tillardan kirib kelayotgan atamalarning moslashtirilmaganligi, yangi sohalarda yetarli terminlarning mavjud emasligi hamda normativlashtirish tizimining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi o'zbek terminologiyasi oldida turgan dolzarb muammolardir.

Ushbu muammolar ilmiy muloqotning aniqligi va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, terminologik tizimning izchil va barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, terminlarni yaratish va me'yorlashtirish jarayonida tilshunoslar, soha mutaxassislari hamda tarjimonlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yangi tushunchalar uchun o'zbekcha muqobil variantlarni ishlab chiqish hamda ularni rasmiy normativ lug'atlar orqali mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek

terminologiyasini ilmiy asosda rivojlantirish, uni yagona me'yorlar asosida tizimlashtirish va zamonaviy fan-texnika ehtiyojlariga mos holda boyitib borish milliy ilmiy tilimizning nufuzini oshirishga, ilmiy tafakkurning ravnaqi va bilimlar almashinuvining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dadaboyev X. O'zbek terminologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2019.[5]
2. Geldiyeva X. Terminlarni tarjima qilish masalalari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, 2021.[87].
3. Nurmatova U., Eshbo'tayeva Sh. Terminologik tizim shakllanishi va rivojlanishi: nazariy metodologik asoslari / U. Nurmatova, Sh. Eshbo'tayeva. – Toshkent: «TsAJAR» / in-academy.uz, 2025.[182].
4. Pirmatova D.U. O'zbek tilshunosligida terminologiya masalasining o'rganilishi : ilm-fan va innovatsiya ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari / D. U. Pirmatova. – Toshkent: in-academy.uz, 2025. [48-50].
5. Terminologik lug'atlar tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. [13-17].
6. Xojiyev A. O'zbek tilining izohli lug'ati.